

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITUVCHI VA OTA-ONALAR HAMKORLIKDAGI MUNOSABATLARINING AHAMIYATI

Lobar Shonazarova

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ota-onalar va o'qituvchilar hamkorlikdagi munosabatlarning muhimligi va bunday holatlarda muvaffaqqiyatli ta'limga natijalariga erishish haqida yoritilgan. Munosabat aksincha salbiy bo'lgan holatlarda esa o'quvchining ta'limga va tarbiyasiga ham bevosita va bilvosita ta'sir etishi. Ochiq kunlar (ota-onalar) kunini tematik kanferensiylarini tashkil etish, ular bilan yaqindan hamkorlik qilishning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tematik konferensiya, ota-onalar, o'qituvchi, o'quvchi, natija, tahlil.

### THE IMPORTANCE OF COOPERATIVE RELATIONS BETWEEN TEACHERS AND PARENTS IN PRIMARY EDUCATION

Lobar Shonazarova

Student of Navoi State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article highlights the importance of parent-teacher cooperation and achieving successful educational outcomes in such cases. On the other hand, in cases where the relationship is negative, it has a direct and indirect impact on the education and training of the student. The importance of organizing open days (parents) thematic conferences and close cooperation with them in professional activities is explained.

**Key words:** Thematic conference, parents, teacher, student, result, analysis.

### ВАЖНОСТЬ ОТНОШЕНИЙ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЧИТЕЛЯМИ И РОДИТЕЛЯМИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Лобарь Шоназарова

Студентка Навоийского государственного педагогического института

**Аннотация:** В данной статье описывается важность отношений сотрудничества между родителями и педагогами и достижения успешных образовательных результатов в таких случаях. С другой стороны, в тех случаях, когда связь носит отрицательный характер, она оказывает прямое и косвенное влияние на обучение и обучение обучающегося. Объясняется важность организации дней открытых дверей (родителей), тематических конференций и тесного сотрудничества с ними в профессиональной деятельности..



**Ключевые слова:** Тематическая конференция, родители, учитель, ученик, результат, анализ.

Boshlang'ich ta'limgan sifatini oshirishsa, yuqori samaradorlikka erishishda o'qituvchi va ota-onaning munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan: hozirgi davrda zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra ta'limgan bilim olishga ,farzandining kelajagiga sarmoya kiritishga bor kuch-quvvatini sarflaydigan ota-onalarning soni ko'pligi quvonarli holat albatta". Eng yaxshi sarmoya - ta'limga kiritilgan kirilgan sarmoya" hisoblanadi. Jumladan: farzandining kelajagiga befarq bo'limgan ota-onalar dars jarayonlarining tahlili uchun va farzandining o'quv jarayonlaridagi faoliyatini baholash , kamchiliklarini kuzatib ,ularni bartaraf etish etish uchun doimiy ravishda farzandining sinf rahbari bilan ijobiy munosabat o'rnatishga harakat qilishi lozim.

O'quvchi bilan muomalaga kirishayotganda ota-onasi bilan doimiy aloqada bo'lib xarakter tipini bilgan holatda do'stona suhbat olib borsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunga ko'ra o'quvchilarining barchasini xarakterlari turli tiplarga mansub bo'ladi. Pavlov ko'p yillik ilmiy kuzatishlari asosida xarakter tiplarini (oliy nerf faoliyatini )4 ta asosiy tipga bo'ladi

Bu bilan o'quvchilar 100% holatda ayni bir xarakter tipiga kiradi deya olmaymiz. Ayni bir o'quvchi masalan: 20% xolerik ,35% Flegmatik , 45% sangvinik tiplarga mansub bo'lishi mumkin . Qaysi tip foiz jihatdan yuqoriroq o'rinni egallasa o'quvchini ana shu tipga mansub deya olamiz, bu ham qisman albatta , Chunki inson xarakteri muhit sharoitidan kelib chiqqan holatda o'zgaradi. O'ta sho'x, chegarasiz boladan ham muhit ta'sirida va insonlarning salbiy munosabati natijasida siniqqan va kuchsiz xarakterli farzandni hosil qilib qo'yishimiz mumkin.

Bundan kelib chiqadiki, sinf xonasida o'rtacha 30 ta o'quvchi bo'lganda ,ularning xarakter tiplari ham bir biriga o'xshamagan holatda 30 xil bo'lishi mumkin. Bu esa o'qituvchi uchun ma'lum bir darajada qiyinchilik tug'dirishi tabiiy. Agarda o'qituvchi ota-ona bilan doimiy aloqani o'rnatgan holatda kasbiy ish faoliyatini olib borsa yuqori samaradorlikka erishish darjasini yuqoriroq bo'ladi.

N.A.Menchinskaya, YU.K.Babanskiy va shunga o'xshash olimlar ilmiy tekshirish ishlarining ko'rsatishicha, o'zlashtirishi past o'quvchilarini keltirib chiqaruvchi sabablar quyidagilardan iborat deb aniqlashdi:

Pedagogik kamchiliklar:ta'limgan individual munosabatning joriy etilmaganligi, ota-onalar va oila a'zolari tomonidan o'quvchilarini nazoratdan chetda qoldirilganlik va g'amxo'rlik qilishning zaifligi kabilalar.(ontogenet psixologiyasi G'oziyev )

O'quvchilarining o'zlashtirish darjasini turli xil bo'ladi.

1)Ziyarak o'quvchilar

Bunday o'quvchilarning ilg'ab olish qobiliyati yuqori, kuchli xarakter egalari bo'ladi.

## 2)Bo'sh o'zlashtiruvchi, passif o'quvchilar

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda ham ijobiy sifatlar uchraydi.Iste'dod siz o'quvchining o'zi yo'q albatta, bilim olishda no'noq o'quvchida boshqa san'at yoki sport sohasida iste'dodi namoyon bo'lishi mumkin. Bu kabi jarayonlarda ota-onalar bilan ustoz hamkorlikda ishlagan holatda o'quvchini yoshlikdan to'g'ri yo'naltira olsa , bunday o'quvchi vatanimiz ravnaqi uchun ham katta natijalarga erisha oladi.

Ota-onalar bilan to'g'ri munosabat o'rnatishda guruh va jamoaviy hamkorlikni asosiy shakllani quyidagilardan iborat:

- maktab miqyosida yoki sinfda ota-onalar yig'ilishi;

- maktab tadbirlari kansertlar o'tkazish;

- ochiq kunlar (ota-onalar kuni):ota-onalar kunini tematik kanferensiyalarini tashkil etish:

Tematik kanferensiyalarga:- ya'ni biror mavzu yoki mavzuga doir , biror mavzuga bag'ishlangan yig'ilish, kanferensiyalar misol bo'ladi.

Hozirgi davr XXI asrning zamонавиylари bilan yig'ilish o'tkazib , ularning taklif va qo'shimchalarini (pedagogik faoliyatga zid bo'lмаган holatda albatta) qo'llab quvvatlashimiz mumkin.

Ayniqsa tarbiyasi og 'ir agressif bolalarning ota-onalar bilan doimiy a'loqani o'rнata olsak ,o'quvchining miyasidagi bunday buzilishlarni oldini olishimiz mumkin.Chunki bolalarimiz ,o'quvchilarimiz bizning ertangi kunimizni belgilab beruvchi umid nihollarimizdir .

Ammo guruch kurmaksiz bo'lмаганidek jamiyatimizdagi salbiy holatlarga ham ko'z yumib o'tolmaymiz.

O'qituvchini pedagogik faoliyatini amalga oshirishda quyidagilar ta'qilanganadi:

- pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish

- uning faoliyatini asossis ravishda tekshirish

- pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatish

- shuningdek unga o'z xizmat majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilish.

Pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega :

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni

- o'qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan foydalanish;

- belgilangan tartibda mualliflik dasturlari va o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish va joriy etish

- ijodiy faollik ko'rsatish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari vs modullaridan foydalanish;

-kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchunzarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

**Xulosa:** Farzandining kelajagiga befarq bo'lmagan ilmli ota-onalar bilan suhbat olib borish jarayonida ulardan qisqa-qisqa savollardan iborat so'rovnama o'tkazildi. Ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomadan shunday umumiylar xulosalarga kelish mumkin:ular farzandining ta'limiga befarq emas, imkonli boricha ta'limda ishtirok etishga, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilishga harakat qiladi.

Doimiy ravishda xizmat safarida bo'ladigan yoki kuni bilan ish faoliyatini olib boradigan ota-onalar ham iloji boricha kechqurun bo'lganda ham farzandining daftarkundalikdagi baholarini nazorat qilishlarini aytib o'tishdi. Ayrim holatlarda farzandi boshlang'ich sinfda o'qishiga qaramasdan fanni to'liqroq o'rghanish uchun qo'shimcha to'garak, repitetorlarga berganligi ma'lum bo'ldi. Bundan kelib chiqadiki hech bir ota-onasi farzandining kelajagiga befarq emas, barchasi farzandining oliy ma'lumotli bo'lib, bironta davlat ishini yoqasidan tutishni tarafdori. Hozirgi zamon imkoniyatlari ham shuni talab qiladi albatta.

Berilgan imkoniyatdan oqilona foydalaniib, yosh bo'lishiga qaramasdan yuksak marralarni zabt etayotgan, vatanimiz ravnaqi uchun, yuksalishi uchun o'zining hissasini qo'shib kelayotgan yoshlarmiz ham talaygina.

Biz yosh pedagoglarni vazifasi esa ularni qo'llab-quvvatlab, ularga ishonch berib, shunday yoshlarni ko'payishiga o'zimizning beminnat hissamizni qo'shish. Shu o'rinda aytib o'tishim joizki ishonch so'ziga bekorga to'xtalmadim. Farzand ayni bir o'quvchi ota-onasining, yaqinlarining unga ishonishini his qilib turishi shart. Shundagina unda o'ziga bo'lgan ishonch hissi shakllanib, ma'lum bir maqsadini, orzusini amalga oshirishi uchun o'zida jasorat topa oladi. O'zidagi jasoratni qalbini tub tubiga bekitib, yashirib kelar ekan o'zining maqsadlarini amalga oshirishi uchun jasorat, kuch topa olmas ekan orzu orzuligicha qolib ketadi. Farzandlarimizdagi orzularni maqsadga aylanishi uchun to'g'ri yo'riq ko'rsata olish biz pedagoglarni kasbiy faoliyatimizdagagi muhim dasturiyal bo'lmog'I lozim.

Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, aqlli, dono va baxtli bo'lishlari shart"

### Adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Odam va uning salomatligi 8-sinf darsligi 43 mavzu
- 2) Ontogenet psixologiyasi G'oziyev 123-bet